
**Ijro etish xarakterini bildiruvchi belgilar**

M a e s t o s o - maestoso - tantanali;
E k s p r e s s i v o – ekspressivo – ta'sirli;
C a n t a b i l e - kantabile - kuylab;
D o l c e - dolche - nozik;
G r a s i o z o – grasiozo – latif;
A n i m a t o – animato – jonli;
A p p a s i o n a t o – appasionato – zavqli;
N o n t r o p p o - non troppo - o'rtamiyona;



M o l t o – molto – juda, nihoyatda;
P o c o a p o c o - poko a poko - oz-oz, sekin-asta;
S u b i t o – subito – to'satdan;
S e m p r e – sempre – doimo, hamisha;
M e n o m o s s o – meno mosso – sekinroq;
L e g a t o – legato – bog'lab;
N o n l e g a t o – non legato – bog'lamasdan, legato yo'q;
S i m i l e – simile – shu tarzda, xuddi shunday davom ettirish.

**Dinamik belgilar**

***mf*** – metsso forte – ortacha kuchli;
***f*** – forte – kuchli;
***ff*** – fortissimo – juda kuchli;
***p*** – piano – mayin, kuchsiz;
***pp*** – pianissimo – juda mayin, juda kuchsiz;
– kreshchendo – tovushni asta-sekin kuchaytirish;
– diminuendo – tovushni asta-sekin susaytirish;
***sf*** – sforsando – keskin, kuchli zarb;
***sp*** – subito piano – keskin, mayin zarb;
**>** – aksent – tovushni ajratib, baland chalish.

**Avj** [ arab. – chuqqi ] – musiqa bayoni va rivojida eng yuqori nuqta.

**A kapella** – sozsiz cholg'u jo'risiz odatda xor tomonidan ijro etiladigan musiqa asari .

**Akkompanement** – ashula aytganda yoki biror cholg'u asbobida chalganda unga jo'r bo'lish .

**Akkord** – turli balandlikdagi uch va undan ortiq tovushlarning qo'shilib yaxlit xolda yangrashi .

**Aksent** – biror tovush yoki akkordni qattiq chalish .

**Alteratsiya** – yetti pog'onadagi tovushlar [ do, re , mi , fa , sol , lya , si ] ning balandligini yarim yo butun Tonga o'zgartirish .

**Ansammbl** – vokal yo cholg'u musiqasi asarini bir necha ijrochi tomonidan ijro etilishi .

**a tempo** – ilgari suratda .

**Ashula** – keng tarqalgan vokal musiqa janri va shakli bo'lib unda sheriy va musiqiy obrazlar bir birga uyg'unlashgan holda gavdalanadi

**Bastakor** – [ fors- toj , basta –bog'lov ,kor –ish , mashg'ulot] - monodiya uslubida asar asosan qo'shiq ashula cholg'u kuy Lar yaratuvchisi ijodkor .

**Baxshi shoir** – do'mbira yoki dutor jo'rligida doston yo'llarini ijro etish Bilan birga turli mavzularda o'zlari xam sher va dostonlar yaratuvchisi .

**Garmoniya** – bir yo'la eshitiladigan bir necha tovushlarning o'zaro bog'lanishda kelishi

**Duet** – ikki ijrojidan tuzilgan ansambl .

**Improvizatsiya** – musiqa asarining bir yo'la ijod qilinib badixa tarzida aytilishi .

**Naqorat** – ashulaning bir necha bor qaytariladigan qismi .

**Pauza** – vaqtincha jim turish yani musiqa asarining biror qismida yoki ayrim ovozlarida tovush chiqazmay to'xtash yo malum bir muddat to'xtash belgisi .

**Solo** – bir ijrochining yakka o'zi ijro etishi ansambl xor yoki arkestrdagi eng muxim partiya parcha .

**Terma** – o'zbek folklorlarining janr turlaridan bo'lib aytiladigan ashula so'zining xar bir bandi turlicha mazmundan iborat .

**Transpoziya** – tovushlarni boshqa balandlikka ko'tarish .

**Tutti** – musiqa asarining orkestrdagi xama musiqachi yoki butun xor tomonidan ijro etilishi .

**Fermata** – nota va pauzalarning uzunlik miqdorini istalgancha cho'zish uchun qo'llaniladigan maxsus belgi

**Ballada** – (italyancha «ballade») - adabiy-poetik janr bo'lib, xalq o'tmishi haqidagi she'riy qissa. Qissa yoki hikoya qilib aytib berish xarakterida yozilgan cholg'u yoki vokal musiqa asari.

**Vals** – (frantsuzcha «valse») - ikki birgalikda ohista o'ynaydigan raqs. Musiqa o'lchovi 3/4 bo'lib, tez, o'rtacha tez va vazmin sur'atlarda bo'ladi.

**Kontsert** - (lotincha «concertere» – musobaqalashmoq) - simfonik orkestr yoki xalq cholg'u asboblari orkestrining jo'rligi bilan, yolg'iz bir cholg'u yoki ovoz uchun yirik shaklda yozilgan musiqa asari. Kontsert ko'proq 3 qismdan iborat bo'lib, 1-qismi – dramatik xarakterda – sur'ati tez, asosan sonata allegrosi shaklida,



2-qismi lirik xarakterli - salmoqli suratda bo'lsa, 3-qismi – final, tantanali raqs shaklida yoziladi.

**Kontsertino** – (italyancha – «concertino») - bir qismdan iborat kichik hajmdagi kontsert.

**Menuet** - (frantsuzcha – «menuetto», «menu» – kichik, mayda) - tekis harakatlar bilan salmoqli sur'atda ijro etiladigan qadimiy frantsuz xalq raqsi. Takt o'lchovi uch hissali.

**Menuet** – shaxdam sur'atli, raqs xarakteridagi pesa.

**Mazurka** – (polyakcha – «mazur») - keskin ritmli va ildam xarakterdagi polyak xalq raqsi. Sur'ati turlicha bo'lib, takt o'lchovi 3/4 yoki 3/8, urg'u odatdagidek taktning kuchli hissasiga emas, balki boshqa hissalariga ham tushishi mumkin. **Polonez** – (frantsuzcha – «dance polonacie»ning qisqartirilgani) - ohista qadamlar bilan tantanali ijro etiladigan, 3/4 o'lchovli qadimiy polyak raqsi. XIX asrga kelib, kontsertlarda ijro qilinadigan cholg'u pesasi sifatida shakllandi va keng tarqaldi. **Polka** – (chex. «pulka»– yarim ) - chex xalqining qadimiy raqsi. Raqqoslar juft-juft bo'lib, aylana shaklida ijro etiladilar. Musiqa o'lchovi 2/4 raqs, sho'x va jonli xarakterga ega.

**Poema** – (yunoncha «poema» – ijod qilaman) - 1) Uncha katta bo'lmagan lirik xarakterdagi cholg'u asari; 2) Orkestr ijrosi uchun hamda orkestr jo'rligida yakkaxon cholg'u yoki ovoz uchun yaratilgan bir qismli yirik musiqa asari. **Prelyudiya** – (lotincha – «prea» – oldin, «ludus» - o'yin) - asosiy musiqadan oldin ijro etiladigan kichik musiqiy pesa, muqaddima. XI asrdan boshlab, Yevropada qadimiy cholg'ular - lyutnya, klavesin va organ cholg'ulari ijrosida ommaviylashgan.

**Popurri** – (frantsuzcha – «pot pourry» – turli go'sht va sabzavotlardan tayyorlanadigan ovqat) – har-xil musiqa asarlaridan olingan parchalar asosida tuzilgan pesa.

**Rapsodiya** – (yunoncha «rapsody» – kuylanadigan yoki hikoya qilinadigan epik doston, qo'shiq) - xalq ohanglari asosida erkin yaratilgan cholg'u asari. Bunda bir necha xalq ohanglari erkin holda kengaytirilib, qayta ishlanadi.

**Romans** – (ispancha «romance» - roman) - 1)Yakka ovoz uchun yozilgan asar. Turli mavzu, xarakter va tuzilishga ega bo'lib,

cholg'u asboblari jo'rligida ijro etiladi; 2) Muayyan cholg'u uchun yozilgan ohangdor musiqiy pesa.

**Rondo** – (frantsuzcha «roundeau» - doira) - turli mazmundagi lavha (epizod)lar orasida bosh mavzu – refrenning - bir necha bor qaytarilishiga asoslangan musiqiy shakl. Rondoda bosh mavzu kamida uch marta asosiy tonallikda qaytarilishi shart. **Sonata** – (lotincha «conare» – tovush berish) - ommaviylashgan kamer cholg'u musiqa janri. XIV-XVII asrlardan yakkanavoz yoki turli cholg'u ansambllarga mo'ljallangan, odatda 3 qismli asar.

**Sonatina** – (italyancha «sonatina» – kichik sonata) – kichik hajmdagi sonata. **Serenada** – (italyancha «al cereno» – ochiq, ravshan) - ilgarilari oqshom paytlarida muhabbatga loyiq bo'lgan xotin-qizlar uyi oldida ijro etiladigan vokal musiqa asari. Odatda lyutnya, mandolina yoki gitara jo'rligida ijro etilib, asosan Ispaniya va Italiyada keng tarqalgan.

**Syuita** – (frantsuzcha «suite» – qator, tizma) - har bir qismi mustaqil, turli xarakterdagi musiqiy pesalarining bog'lanib kelishiga asoslangan musiqiy asar. **Tarantella** – (italyancha – «Toronto» – Italiyaning janubidagi shahar nomi) - juda tez sur'atda ijro etiladigan Italiya xalq raqsi. Musiqa o'lchovi 6/8 yoki 3/8 da bo'lib, odatda triolli ritmda kelishi bilan xarakterlidir.

**Ufor:** – 1) Yengil raqs musiqasi yoki doira usuli; 2) Shashmaqom va boshqa maqom turkumlaridagi Nasr (ashula) bo'limining oxirida keladigan ba'zan raqsli ashula yo'li.

**Fantaziya** – (yunoncha – «phantasy» – tasavvur etish, hayol qilish) - erkin shaklda yozilgan cholg'u asari, pesa. Dastlab, kamer janri tarzida vujudga kelgan, badiha (improvizatsiya) xarakterida, erkin shaklda bo'lgan. Ko'proq organ va klavesinlar uchun yaratilgan. XIX asrdan boshlab fortepiano uchun yozilgan, mahorat bilan ijro etiladigan pesalar ham fantaziya deb atala boshlangan.

**Qo'shiq** – she'r va kuyi keyinchalik muayyan muallif (shoir va bastakor yoki kompozitor) xalq tomonidan ijod qilinib, keng tarqalgan musiqa janri. Qo'shiq she'rlari bir necha banddan iborat bo'lib, ba'zan naqarotli bo'ladi.



**Yumoreska** – kichik hajmli yumoristik, hazil xarakteridagi pesa. Musiqa adabiyotida A.Dvorjak, P.Chaykovskiy, V.Raxmaninov va boshqa kompozitorlar yumoreskalari mashhur.

**Applikatura** (nem. Applicatur – qo'ymoq, bosmoq) – musiqa cholg'ularini ijro qilganda barmoqlarni to'g'ri qo'yish va almashtirish tartibi. Bu tartibning notalarda ko'rsatilishi ham applikatura deyiladi. Applikatura arab raqamlari bilan notalarning osti yoki ustiga qo'yiladi.

**Ansambl** (fr. Ensemble – birgalikda) 1. Vokal yoki cholg'u musiqa asarining bir necha ijrochi tomonidan ijro etilishi. 2. Bir to'da san'atkorlarning bir butun badiiy jamoa holda chiqishi. 3. U qadar katta bo'lmagan xonanda yoki sozandalar jamoasi uchun yaratilgan musiqa asari. Ijrochilar soniga qarab bu ansambllar turlicha ataladi. Ikki ijrochi – duet, uch ijrochi – trio yoki terset, to'rt ijrochi – kvartet, besh ijrochi – kvintet, olti ijrochi – sekstet, etti ijrochi – septet, sakkiz ijrochi – oktet va hokazo. Ba'zan ansambl so'zini orkestr yoki xor jamoasining kichraytirilgan turiga ham aytiladi.

**Ad libitum** – xohishga ko'ra, istalgancha.

**Glissando** – (italyancha "glissando" – sirg'anma) – bir tovushdan ikkinchi tovushga sirg'alib o'tish.

**Diapazon** (yun. Diapason – barcha (torlar) orqali)– xonandaning ovozi, cholg'uning tovush hajmi. Musiqiy matodagi eng pastki va eng yuqorigi tovush oralig'i.

**Diatonika** (yun. Diatonikos – bir tondan ikkinchi tonga o'tish) – ladning asosiy bosqichlari izchilligidan vujudga keladigan musiqiy tovushlar tizimi. Tabiiy major, minor va o'rta asr ladlari uchun asos bo'lgan asosiy yetti pog'onadagi ton va yarim tonlar diatonikaga kiradi.

**Diatonik gamma** – laddagi asosiy tovushlarning birin-ketin izchilligi. To'liq diatonik gammada yettita tovush bo'ladi.

**Dinamika** (yun. Dinamikos – kuchli) – musiqiy tovushlarning qattiq-sekin ijro qilinishi.

**Intermesso** (ital. intermezzo — tanaffus) — yakka soz, ansambl yoki orkestrga mo'ljallangan erkin shakldagi kichik musiqa asari. Interval (lot. Intervallum – oraliq, masofa) – ikki musiqiy tovush o'rtasidagi oraliq. Bunda tovushlar bir vaqtda

yangrasa garmonik interval, birin-ketin yangrasa – melodik interval deb ataladi. Asosiy intervallar – prima, sekunda, tersiya, kvarta, kvinta, seksta, septima, oktava.

**Lad** – turg'un va noturg'un musiqiy tovush pog'onalarining o'zaro bog'liqligiga asoslangan tovushlar tizimi. Zamonaviy musiqada yetti pog'onali major va minor ladlari asosiy ladlar hisoblanadi.

**Orkestr** (yun. Orchestra - qadimgi yunon teatri sahnasi oldidagi maydoncha) - turli cholg'ularda chalib, ijrochilarning ushbu guruhi uchun yozilgan musiqa asarini birgalikda ijro etuvchi sozandalarning katta jamoasi. Cholg'ularning tarkibiga ko'ra orkestrlarning turlari: simfonik – to'liq tarkibdan iborat, torli – kamonli cholg'ular, damli - yog'och va mis damli cholg'ular, shovqinli - urma-zarbli cholg'ular, shuningdek, milliy cholg'ulardan tuzilgan – xalq cholg'ulari orkestri.

**Partitura** (it. partitura – bo'lingan, taqsimlangan) – ansambl, xor, orkestr uchun yozilgan ko'p ovozli musiqiy asarning nota yozuvi. Unda barcha ovozlarning partiyalari jamlangan. Partiturada partiyalarning taqsimlanib kelishi yuqoridan quyi tomon turdosh cholg'ular bo'yicha keladi. o'z navbatida, bir turdagi cholg'ularning eng yuqori registrga mansubi yuqorida, qolganlari registri bo'yicha pastki satrlarda yoziladi.

**Partiya** – (musiqada) 1. Ansambl qatnashchilaridan birining nota yozuvi. 2. Sonata shaklining ekspozistiyasida asosiy mavzular bosh partiya, yordamchi partiya, yakunlovchi partiya sifatida keladi.

**Pozitsiya** – (lotincha "position" - vaziyat) – Cholg'ularda ijro etishda barmoqlar holati tushuniladi.

**Registr** (lot. Registrum – ro'yxat, yozib, qo'yish) – musiqiy matoda ohang yoki fakturani tovushqatorlarning yuqori, o'rta yoki pastki qismlariga mansubligi bo'yicha ajratish.

**Rekonstruktsiya** (lot. Re – "yangilanish" ma'nosini bildiruvchi so'z yasovchi qo'shimcha, va constructio – tuzilma) – qadimiy musiqiy cholg'ularni qayta tiklash. Ushbu atama zamonaviy musiqiy cholg'ushunoslikda xalq cholg'ularini tiklash va orkestrga mansub turlari (pikkolo, alt, bas va boshqalar)ni yaratish ma'nosida qo'llaniladi.



**Simfonik** poema — muayyan mavzu (yoki syujet)ga asoslangan bir qismli simfonik asar.

**Soz** – 1. Tovushlarning balandlik holati va munosabati. Cholg'ulardagi soz ularning tovushqatori tuzilishi va baland-pastligini aniqlaydi. Orkestr va ansambllar sozi shu jamoadagi cholg'ularning bir-biriga bo'lgan balandlik munosabatlariga ko'ra sozlanadi. 2. Torli musiqa cholg'u.

**Temperatsiya** (lot. Temperatio – to'g'ri munosabatda, bir o'lchamda) – musiqiy pog'onalar oralig'idagi intervallar munosabatining tengligi. Oktava oralig'ining teng 12 yarim tonga bo'linishi bir tekis temperatsiya bo'ladi.

**Tovushqator** – cholg'uda chalinishi yoki kishi ovozida aytilishi mumkin bo'lgan tovushqator. U yuqori ko'tarilayotgan yoki quyi tushayotgan qator tovushlar tizmasida tuziladi.

**Transpozitsiya** (lot. Transponere – joyini o'zgartirmoq) – tovushlarni boshqa balandlikka ko'chirish. Transpozistiya turli sharoitda qilinadi: yozilgan musiqa asari xonanda ovoziga noqulay bo'lsa; bir cholg'udan ikkinchisiga ko'chirish zarurati bo'lsa; yozilgan notalar o'qish uchun noqulay bo'lsa. Mazkur hollarda musiqa asarini bir tonallikdan ikkinchi tonallikka transpozistiya qilinadi; bunda uning xarakteri, ritmi va boshqa unsurlari o'zgarmaydi. Transpozitsiyalanuvchi cholg'ular – kuy ijro etilganida nota yozuvida yozilganiga ko'ra past yoki baland tovush bilan yangraydigan cholg'ular. Masalan, qashqar rubobi, afg'on rubobi yangrashiga nisbatan bir oktava yuqori yoziladi. Qadimiy nay cholg'umizning yangi turi - Nay pikkolo esa yangrashiga nisbatan bir oktava past yoziladi.

**Tembr** (fr. tembre - qo'ng'iroq, ajratish belgisi) – tovush tusi, har bir musiqiy cholg'u yoki xonanda ovozining o'ziga xos tovush xarakteri. Cholg'uning tuzilishi va shakliga ko'ra uning tembri turlicha bo'ladi.

**Uvertyura** (lotincha apertura — ochish, boshlanish) — opera, balet, oratoriya, drama, kinofilm va boshqa janrlarning muqaddimasidan iborat cholg'u pyesa; shuningdek, orkestr uchun yozilgan konsert asari. Tinglovchini opera, balet va musiqali dramadagi voqealarga tayyorlaydi, undagi jo'shqin muhitga olib

kiradi. Uvertyura, odatda, asarning xarakteri, g'oyaviy maqsadi, asosiy obrazlarini umumlashtirgan holda ifodalaydi.

**Unison** (it. unisono – bir xil sado) – bir xil balandlikdagi ikki (yoki bir necha) tovushning bir vaqtda yangrashi.

**Xromatizm** (yun. Chroma – rang) – diatonik laddagi pog'onalarning yarim tondan o'zgarishi. Ular alterastiya belgilari – diyez yoki bemol bilan ko'rsatiladi. Xromatik yarim ton bir pog'onadagi ikki turli tovushdan tuziladi. Masalan, "do" va "do-diyez". Xromatik gamma – kuyning yarim tonlar bo'yicha baland-pastga izchil harakati. To'liq xromatik gamma 12 tovush (yarim ton)dan iborat. Gammadagi xromatik va diatonik yarim tonlarni tartibli almashinib kelishi lad tuzilishi (major va minor) va harakat yo'nalishi (yuqorilanishi yoki pasayishi)ga bog'liq. Xromatik gamma diatonik gammadagi butun ton pog'onalarini ko'tarish yoki pasaytirish yo'li bilan to'ldiriladi.

**Detache** - detashe - (fransuzcha detacer - alohida degan ma'noni bildiradi) mizrobning zarblari ishtirokida har bir tovush yetarli darajada cho'zib alohida ijro qilinadi. U nota yozuvida maxsus belgilar bilan ifodalanmaydi.

**Marcato** - markato (italyancha «marcare» - ajratib ko'rsatish, urg'u berish) - mizrobning keskin zarblari ishtirokida kuch bilan urg'u berilgan tovushlar chalinadi. Bunda har bir tovush oxirigacha cho'ziladi va shunisi bilan sfortsandodan farq qiladi.

**Staccato** - Stakkato(italyancha alohida, qisqa-qisqa degan ma'nolarni bildiradi) u mizrobning keskin lekin tez va yengil uriladigan zarblari natijasida har bir tovush yarmigacha qisqartirib chalinadi.

**Staccatissimo** — stakkatissimo - stakkatoga qaraganda ham qisqa (yozilgan tovush cho'zimining to'rtdan biriga qisqaradi) vastaccatissimo yozuvi bilan ifodalanadi.

**Martele** - martele (fransuzcha "marteler"-cho'kichlamoq, zarb urmoq) bunda tovushlar mizrobning zarbi va kuchli bosimi bilan bir xil dinamikada alohida bo'rttirib chalinadi.

**Tenuto** - tenuto — mizrobning qattiq zarblari yordamida, ammo urg'u bermasdan har bir tovush oxirigacha cho'zib ijro qiiinadi.



**Non legato** - non legato - mizrobning yumshoq zarbi natijasida tovushlar bir-biriga bog'lanmasdan chalinadi. Bunda har bir tovush orasida kichkina pauza hosil bo'ladi.

**Portato** - portato - mizrobning yumshoq harakati natijasida tovushlar cho'zibroq bir biriga bog'langan holda ijroqilinadi.

**Portamento** - portamento - vokal ijrochiligi tajribasidan olingan shtrix bo'lib, tovushdan tovushga yengil, nozik sirpanib o'tishni ifodalaydi.

**Legatissimo** - tovushlarning yanada ko'proq bog'liqligini talab qiladigan shtrix

## "ORKESTR SINFI" fanidan TEST savollari

1. O'zbek xalq cholg'ulari orkestridagi urma zarbli cholg'u asboblarini belgilang?
A.*Doira, nog'ora, litavra
B.Doira, baraban, litavra
C.Nog'ora, udarnik, litavra
D.Udarnik, baraban, litavra

2. Orkestrni kim boshqaradi?
A. Doirachi
B. Solist
C. *Dirijyor
D. Hechkim boshqarmaydi

3. Nay qaysi cholg'u guruxiga mansub?
A. Urma zarbli
B. Mezrobli
C. Kamonli
D.* Puflama

4. O'zbekiston davlad madhiyasi qaysi o'lchovda yozilgan?
A. *4/4
B. 2/4
C. 3/4
D. 6/8

5. Bir oktava oralig'i nechta tondan iborat?
A.7
B.8
C.*6
D.5

6. Bir vaqtda yangragan intervallar qanday ataladi?
A.*Garmonik
B.Melodik



C.Xramatik
D.Nona

7.Bir oktava yuqori eshitiladigan cholg'u nomini ayting?
A.Chang prima
B.Rubob prima
C.*Nay pikkalo
D.Dutor prima

8. Re bemol majorda nechta belgi bor?
A.4
B.*5
C.6
D.7

9. O'zbekistonda birinchi ayol dirijyor kim?
A.*D.Abdurahimova
B.F.Abdurahimova
C.D.Malikova
D.S.Fozilova

10. Dirijyor aparatiga nimala kiradi?
A.*Tana, qo'llar, bosh, mimika
B.Dirijyor tayoqchasi, notasi, orkestr kitobchasi
C.Dirijyor tayoqchasi, bosh, qo'llar, yelka oyoqlar
D.Tana va oyoqlar

11."Largo" tempi qanday ijro etiladi?
A.Tezroq
B.Juda tez
C.Ohista
D.*Juda sekin cho'zib

12.Unison so'zining ma'nosi qanday?
A.Vokal ijrosi
B.Jo'rli ijro

C.*Bir xil balandlikdagi ikki yoki bir necha ovoz bilan bir vaqtda eshitilishi.
D.Ovoz partiyasi

13. Bastakor so'zining ma'nosini aniqlang?
A.*Bog'lovchi-yaratuvchi
B.Xonanda
C.Sozanda
D.Raqqosa

14.Aksent belgisi nima vazifani bajaradi?
A.Baland ijro qilish
B.Yumshoq ijro etish
C.Ritm buzulishi
D.*Zarb, urg'u berish

15.Akolada nechi turda bo'ladi?
A.*2
B.3
C.4
D.5

16.Nota nima?
A.Lad
B.Musiqiy holat
C.*Musiyqiy tovushlarning belgisi
D.Alteratsiya belgilari

17.4/4 o'lchovida nechta kuchli hissa bor?
A.4
B.5
C.*2
D.3

18.Tovushni bir ton ko'taradigan belgini aniqlang?
A.*X
B.#



C.b
D.bb

19.Staccato nima?
A.Mayin ijro etish
B.Uzmasdan ijro qilish
C.*Uzib ijro qilish
D.Tog'ri javob yo'q

20.Diminiendo belgisi nima vazifani bajaradi?
A.Tovushni sekin ijro etish
B.Tovushni asta sekin kuchaytirish
C.Tovushni birxil balandlikda ijro etish
D.*Tovushni asta sekin pasaytirish

21.G'ijjak cholg'usi okestrda qaysi guruhga kiradi?
A.*Kamonli
B.Urma zarbli
C.Mezrobli
D.Puflama

22.Alteratsiya belgilari nechta?
A.3
B.4
C.*5
D.6

23.Fermato belgisi nima vazifani bajaradi?
A.Tovushni uzish
B.Tovushni akord bilan chalish
C.Tovushni cheklash
D.*Asarni mazmunidan kelib chiqgan xolda cho'zish

24.Lya majorning paralel minori aniqlang?
A.Mi minor
B.*Fa # minor
C.Do # minor

D.Sol # minor

25.Bitta kuchli hissa qatnashgan o'lchovni aniqlang?
A.8/12
B.3/4
C.4/4
D.*2/4

26.Dirijyor tayoqchasining vazifasi?
A.O'ng qo'l davomchisi
B.Chap qo'l davomchisi
C.*Ko'rsatkich barmoq davomchisi
D.To'g'ri javob yo'q

27.Orkestrda solistga qaysi qo'l yordamida ishora beriladi?
A.*Chap qo'l
B.O'ng qo'l
C.Chap va o'ng
D.Tog'ri javob yo'q

28.O'zbekiston davlad madhiyasi qaysi intervalda boshlanadi?
A.Prima-tertsiya
B.Prima-kvinta
C.*Prima-kvarta
D.Prima-septema

29.Oddiy intervallar nechtadan iborat?
A.7
B.*8
C.12
D.9

30. Bir tondan ikkinchi tonlikga o'tish nima deb ataladi?
A.*Modulyatsiya
B.Sinkopa
C.Og'ushma
D.Fraza



31.Sonata nechi qismdan iborat?
A.4
B.5
C.*3
D.2

32.V.Monti "Chardash" asari qaysi asarlar shakliga kiradi?
A.Yirik
B.Raqs
C.Quvnoq
D.*Moxirona

33.Sof kvarta intervali nechi tondan iborat?
A.2
B.*2.5
C.3
D.3.5

34.Dutorbas asbobi qaysi cholg'u asboboi bilan birxil sozlanadi?
A.*G'ijjak bas
B.Dutor kontrbas
C.G'ijjak kontrbas
D.Dutor alt

35.Notalarni bir-biriga ulab ijro etishni bildiradigan belgi nima deb ataladi?
A.*Legato
B.Dimunendo
C.Aksent
D.Detashe

36.Auftakt nima?
A.Nim chorak
B.Gavda
C.Qo'l
D.*Nafas

37.Oddiy o'lchovlarga qaysi o'lchovlar kiradi?
A. 2/4, 5/7, 8/12
B. 2/4, 4/4, 2/2
C. 4/4, 6/8, 5/8
D. *2/4, 3/4, 2/2

38."Piano"- dinamik belgisi nimani anglatadi?
A.Tovushni baland ijro etish
B.*Tovushni past ijro etish
C.Tovushni pastdan yuqoriga qaratib ko'tarib borish
D.Tovushni o'rta balandlikda ijro etish

39.O'zbek xalq cholg'u orkestri nechta guruhdan iborat
A. 3
B. 4
C. *5
D. 6

40.Xarakat tezligi bu nima?
A. *Temp
B. Aksent
C. Forte
D. Dinamika

41. Turg'un tovushlar?
A. 1-3-3
B. *1-3-5
C. 3-5-7
D. 2-4-6

42. O'zbekistondagi "Sug'diyona" orkestri dirijyori kim?
A. F.Sodiqov
B. D.Mutalov
C. K.o'rinboyev
D. * F.Abduraximova



43. Qaysi orkestr O'zbekistonda birinchilardan bo'lib paydo bo'ldi?
A. Kamer orkestr
B. Xalq cholg'ulari orkestri
C. Simfonik orkestr
D. *Damli orkestr

44. Fa # majorda nechta belgi bor?
A.5
B.6
C.7
D.4

45."So'g'diyona" kamer orkestri nechanchi yilda tashkil etilgan?
A. *1990 yilda
B. 1998 yilda
C. 1991 yilda
D. 1995 yilda

46.Ilk bora O'zbekistonda nota orkestrini tuzgan musiqashunos qaysi bandda to'g'ri ko'rsatilgan?
A. *Nikolay Mironov
B. Viktor Uspenskiy
G. Ashot Petrosyans
D. Hamza Niyoziy

47.Qaysi shahardagi ko'rgazmada o'zbek xalq cholg'ulari namoyish etilgan?
A. Ukrainada
B. Qozog'istonda
C. Nijniy Novgorodda
D. *Moskvada

48.O'zbekiston Davlat akademik xalq cholg'ulari orkestrining dirijyori qaysi bandda to'g'ri ko'rsatilgan?
A. Sherzod Umarov

B. Feruza Abduraximova
C. *Dilshod Mutalov
D. Kamolliddin o'rinboyev

49.O'zbek xalq cholg'ularini orkestr ijrosi uchun moslashtirib rekonstruksiya qilgan tadqiqotchi olim qaysi bandda to'g'ri ko'rsatilgan?
A. *Petrosyants
B. V. Uspenskiy
C. T.Jalilov
D. N.Mironov

50. Doni Zokirov nomidagi xalq cholg'ulari orkestri nechanchi yil tashkil topgan?
A. *1957 *yili*
B. 1955 yil
C. 1956 yili
D. 1958 yili

51.To'xtasin Jalilov nomidagi O'zbekiston davlat akademik xalq cholg'ulari orkestri ga qachon "Davlat orkestri maqomi berilgan?
A. 1955 yilda
B. 1966 yilda
C. 1980 yilda
D. *1957 yilda

52."Rubob –prima" cholgu'sining diapozoni qaysi bandda to'g'ri ko'rsatilgan?
A. kichik oktava soldan to'rtinchi oktava migacha
B. katta oktava soldan uchinchi oktava solgacha
C. kichik oktava soldan uchinchi oktava migacha
D. kichik oktava sidan uchinchi oktava lyagacha

53.To'xtasin Jalilov nomidagi o'zbekiston Davlat Akademik xalq cholg'ulari orkestri ga qachon "Akademik orkestr" unvoni berilgan?



A. 1994 yilda
B. 1998 yilda
C. *1991 yilda
D. 2010 yilda

54. "To'fon" kuyi muallifini aniqlang.
A. * B.Mortazavi
B. P.Chaykoviski
C. Yunus Rajabiy
D. Saidjon Kalonov

55. O'zbek xalq cholg'ulari orkestridagi guruxlar ketma-ket nomini aniqlang?
A. *Damli, urma torli, mezrobli va chertma torli, urma zarbli, kamonli torli
B. *Mezrobli va chertma torli, zarbli, kamonli torli*
C. Urma torli, mezrobli va chertma torli
D. Mis damli, urma torli, mezrobli va chertma torli

56. Alterastiya belgilarining vazifasi nima?
A. Tovushning bezagi
B. Tovushning o'rnini almashtirish
C. *Tovushning bir yoki yarim tonga pastga, yuqoriga ko'tarish
D. Tovushning dinamikasi

57. Cholg'uning eng pastidan eng balandigacha bo'lgan tovushlar oralig'i qanday nomlanadi?
A. Registr
B. Diviziya
C. Dinamika
D. *Diapazon

58. Xalq cholg'ulari orkestrining beshinchi guruhini aniqlang?
A. *Kamonli torni
B. Damli
C. Urma zarbli

D. Mizrobli

59. Mizrobli cholg'ular guruhida eng yuqori registrga ega cholg'u?
A. Dutor prima
B. *Rubob prima
C. Afg'on rubob
D. Qashqar rubob

60. Qashqar rubobi xalq cholg'ulari orkestridagi qaysi guruhga mansub?
A. Zarbli cholg'ular
B. Damli cholg'ular guruhi
C. *Mizrobli cholg'ular
D. Kamonli cholg'ular



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI


1. *Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T, 2017-yil.*
2. *Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, Demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda. barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatasining qo'shma majlisidagi nutq. T., 2017-yil.*
3. *Mirziyoyev Sh.M. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini. rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi. (elektron versiyasi).*
4. *A.Fitrat. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. Toshkent., "Fan", 1993-yil.*
5. *A.Lutfullayev. O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik san'ati tarixi. Toshkent.,2010-yil.*
6. *F.Abdurahimova Orkestr sinfi. O'quv qo'llanma. T., 2012.*
7. *F.Abdurahimova O'zbekiston taronalari. So'gdiyona orkestri repetuari.*
8. *M.Akmaljonova Dirijorlik. T, 2017.*
9. *A.Tashmatova. Ijrochilik san'ati tarixi. Toshkent.,2017-yil.*
10. *F.Abdurahimova. Anvar Liviyev. Toshkent , 2004-yil.*
11. *F.Abdurahimova "Orkestr sinfi" o'quv qo'llanma Toshkent 2017.*
12. *Sh.Umarov "Dirijyorlik" o'quv qo'llanma Toshkent Musiqa nashiryoti 2016.*

MUNDARIJA


KIRISH........ 3
I BOB. NAZARIY QISM........ 5
ORKESTR SINFI RAHBARI VAZIFALARI VA DARS JARAYONINING PSIXOLOGIK JIHATLAR........ 5
O'ZBEK XALQ CHOLG'ULARI ORKESTRINING YARATILISHI........ 6
YANGI ASARLAR BILAN TANISHUV........ 7
NOTA O'QISH MAHORATI........ 8
DINAMIKA USTIDA ISHLASH........ 9
XALQ VA O'ZBEK KOMPOZITORLARI ASARLARI IJROCHILIGI........ 9
II BOB. AMALIYQISM. ORKESTR SINFI FANI UCHUN ASARLAR........ 11
"VALS" MAHALLADA DUV-DUV GAP K/F M.LEVIYEV MUSIQASI........ 12
"MAFTUN BO'LDIM " M.BURHONOV MUSIQASI........ 19
"EL BIMBO" K.MORGAN MUSIQASI, A.KARABAYEV NOTAGA OLGAN........ 34
"HAYOT" MAHALLADA DUV-DUV GAP K/F M.LEVIYEV MUSIQASI........ 57
"PALLADIO" K.JENKINS MUSIQASI, O.XOLMIRZAYEV ANSAMBL UCHUN MOSLASHTIRGAN........ 69
"QORABOG' MARVARIDI" F.AMIROV MUSIQASI........ 97
"VALS" S.RAXMATOV MUSIQASI, G'.NORBOYEV NOTALASHTIRGAN........ 125
"TURKCHA QO'SHIQ" O'.TOSHMATOV QAYTA ISHLAGAN VA ORKESTRGA MOSLASHTIRGAN........ 150
"KUJO RAFTI" ERON XALQ KUYI, O.XAKIMOV NOTAGA OLGAN........ 160
GLOSSARIY........ 180
"ORKESTR SINFI" FANIDAN TEST SAVOLLARI........ 190
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI........ 201




**Kosimov Abdulaziz Durdikulovich**

# ORKESTR SINFI

**O'QUV QO'LLANMA**


**Toshkent: "METODIST NASHRIYOTI" - 2026**

***Muharrir: Xolsaidov F.B.***

*Bosishga 04.02.2026.da ruxsat etildi.*
*Bichimi 60x90. "Cambria" garniturasi.*
*Shartli bosma tabog'i 13. Nashr bosma tabog'i 13.*
*Adadi 100 nusxa.*

***"METODIST NASHRIYOTI"** MCHJ matbaa bo'limida chop etildi.*
*Manzil: Toshkent shahri Shota Rustaveli 2-vagon tor ko'chasi, 1-uy.*

***+99893 552-11-21***


***Nashriyot roziligisiz chop etish taqiqlanadi***

**Kosimov Abdulaziz Durdikulovich**



***Pedagog, sozanda, dirijor***

*1990-yil 13-sentabrda Surxondaryo viloyatining Termiz tumanida ziyoli oilasida tug'ilgan. Millati – Turkman.*

*1997 – 2006-yillarda Termiz shahridagi 7-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabida tahsil olgan. Mazkur davr mobaynida 1-Bolalar musiqa va san'at maktabiga borib, otasi Kosimov Durdikul Maratkulovichdan G'ijjak cholg'usidan musiqa saboqlarini olgan va san'atga bo'lgan qiziqish uni Termiz san'at kollejiga yetakladi.*

*2006–2009-yillarda Termiz san'at kollejida tahsil olgan. Shu yillar mobaynida ko'plab xalqaro va respublika tanlovlarida g'olib va sovrindor bo'lgan.*

*2010-yili Termiz Davlat universiteti musiqa ta'limi yo'nalishiga grand asosida o'qishga kirdi va 2014-yil bakalavriat bosqichini tamomladi. 2020-yili Termiz Davlat universitetining magistratura bo'limini imtiyozli ravishda tamomlagan. Musiqa ta'limi va san'at mutaxassisligiga ega.*

*2009-yilda Termiz shahridagi 1-Bolalar musiqa va san'at maktabida o'qituvchi vazifasida ishladi. 2014–2016-yillarda Termiz san'at kolleji (hozirgi Termiz ixtisoslashtirilgan musiqa va san'at maktabi)da Xalq cholg'u kafedrasida G'ijjak cholg'usidan dars bergan. 2016–2018-yillarda Termiz san'at kolleji xalq cholg'u bo'limi kafedrasi mudiri lavozimida ishlagan.*

*2020–2023-yillarda Termiz Davlat universitetining Musiqa ta'limi kafedrasiga o'qituvchi lavozimida ishlagan. 2023- yildan Denov Tadbirkorlik va pedagogika institutida katta o'qituvchi lavozimida ishlab kelmoqda.*

*Kosimov Abdulaziz Durdikulovich ko'plab shogirdlarning ustozi hisoblanadi. Shogirdlari bilan bir qancha xalqaro va respublika tanlovlarida samarali natijalar ko'rsatib kelmoqda. Faoliyati davomida bir nechta O'zbek xalq cholg'ulari orkestri va Kamer orkestr jamoalari hamda ansambllarni ("Surxon yoshlari", "Simfoniya" va "Nurli ohang") tuzib, o'zi dirijor va rahbarlik qilib kelmoqda.*

ISBN 978-9910-12-096-1
9 789910 121074
METODIST NASHRIYOTI